

Byudjetdan mablag' oluvchi muassasalarda joriy va mukammal ta'mirlash ishlarini bajarish bo'yicha
№ 103781 -sonli SHARTNOMA

2022й"22"6

2022-572-11-166- OB-CON

Qo'qon sh

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma Nizom asosida ish yurituvchi **Vodiy Shams Elektron Montaj MChJ** (keyingi o'rinlarda «Ish bajaruvchi» deb ataladi) nomidan ra'xbari **M.Xakimov** birinchi tomon va ikkinchi tomon O'zbekiston Respublikasi Konunchiligi xamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi Obodonlashtirish boshqarmasi nomidan (kelgusida «Buyurtmachi» deb ataladi) ra'xbari **A.Axmedov** o'rtalarida kuyidagi maksadlarda tuzildi.

1. Shartnoma predmeti

1.1. «Ish bajaruvchi» «Buyurtmachi»ga o'zaro kelishuv asosida nuqson dalolatnomalari va loyixa-smeta xujjatlariga ko'ra quyidagi turdagi **mukammal ta'mirlash ishlarini bajarib beradi:**

"Tashabbusli byudjet" 1-bosqichiga asosan 11- Charxini ko'prigi MFY dagi aholi xonadonlarini mavjud gaz quvurlarini rekonstruksiya qilish va qayta gazlashtirish xizmatini bajarish

1.2. Mazkur shartnomaning umumiy qiymati 396 000 000 so'm. Uch yuz to'qson olti million so'm *(raqam va so'z bilan to'liq yoziladi)* so'mni tashkil qiladi.

1.3. Bajariladigan joriy va mukammal ta'mirlash ishlarini xususiyatidan kelib chiqib tegishli xujjatlar rasmiylashtirilgani xolda tomonlarni o'zaro kelishuviga asosan aloxida spetsifikatsiya tuzilib tasdiqlanadi va ushbu shartnomaga ilova qilinadi.

1.4. joriy va mukammal ta'mirlash ishlarini bajarish muddati: 30 (o'ttiz) ish kuni

2. Xisob-kitob shartlari.

2.1. Bajarilgan joriy va mukammal ta'mirlash ishlari uchun xisob-kitob kelishilgan narxlarda, bajarilgan ishlar dalolatnomasi, schet-taktura va boshqa tegishli xujjatlar rasmiylashtirilib "Buyurtmachi" tomonidan qabul qilinib olingandan so'ng to'lov jadvali bo'yicha amalga oshiriladi. Kelishilgan narxlarning shakllanishi uchun bajarilishi lozim bo'lgan joriy va mukammal ta'mirlash ishlarini smetasi yeki kalg'kulyatsiya va baxolar preyskurantlari asos bo'lib xisoblanadi. Agar davlat nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish va taftish ishlar natijasida bajarilgan joriy va mukammal ta'mirlash ishlarida xato va kamchiliklar aniqlansa va belgilangan narxlar yukori deb topilsa, ushbu fark «Ish bajaruvchi» xisobidan qoplanadi.

2.2 «Buyurtmachi» oldindan 30 % miqdorida tulovni amalga oshiradi xamda to'liq xisob-kitobni «Ish bajaruvchi joriy va mukammal ta'mirlash ishlarini bajargandan so'ng 60 kun ichida amalga oshiradi.

2.3. joriy va mukammal ta'mirlash ishlarini bajarilishi jarenda «Buyurtmachi»ga tegishli bo'lgan xom-ashelar va materiallardan foydalanilganda bajarilgan joriy va mukammal ta'mirlash ishlari qiymatidan ushbu sarflangan xom-ashelar va materiallar qiymati chiqarib tashlanib «Ish bajaruvchi» bilan xisob-kitob qilinadi.

3. Tomonlar xuquqi va majburiyatlari:

3.1. «Ish bajaruvchi» o'z kuchlari va ishlab chiqarish vositalari bilan barcha ishlarni mazkur shartnoma va ilovalarida yani loyixa-smeta xujjatlarida ko'zda tutilgan darajada va xajmlarda, muddatida, sifatli, texnik talablarga javob beradigan xolatda bajarib tegishli xujjatlarni to'ri rasmiylashtirishni o'z zimmasiga oladi.

3.2. «Ish bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ish (xizmatlar)ni bir qismi yoki xammasi sifatsiz bajarilganligi aniqlanib «Buyurtmachi» tomonidan tegishli ravishda dalolatnoma rasmiylashtirilganda bajarilgan ishlarni sifatsiz qismi «Ish bajaruvchi» tomonidan o'z mablarlari xisobidan qaytadan bajarib beriladi. Ushbu qo'shimcha bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan to'lov amalga oshirilmaydi.

3.3 «Buyurtmachi» «Ish bajaruvchi» tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan joriy va mukammal ta'mirlash ishlarini nuqson dalolatnomalari (defekt aktlari), loyixa-smeta xujjatlari va boshqa tegishli xujjatlari bilan «Ish bajaruvchi» ni tahminlaydi.

3.4 «Buyurtmachi» bajarilgan joriy va mukammal ta'mirlash ishlarini shartnoma shartlari va loyixa-smeta xujjatlariga to'ri kelishini tekshirib qabul qilib olgandan so'ng bajarilgan joriy va mukammal ta'mirlash ishlari uchun shartnomada ko'rsatilgan muddatda to'lovni amalga oshirishi shart.

4. Jarimalar qo'llanishi:

4.1.1 Agar «Ish bajaruvchi» tomonidan «Buyurtmachi»ga sifatsiz bajarilgan ishlar (xizmatlar) taqdim etilganda «Ish bajaruvchi» esa ushbu nuqsonlarni bartaraf etishdan bosh tortsa, «Buyurtmachi» «Ish bajaruvchi»dan bunday sifatsiz bajarilgan joriy va mukammal ta'mirlash ishlarining 20 %, miqdorida jarima undirib olish xuquqiga ega.

4.2 Agar «Ish bajaruvchi» tomonidan shartnomada belgilangan ishlar muddatlarida bajarilishi taminlanmasa, «Ish bajaruvchi» muddatida bajarilmagan joriy va mukammal ta'mirlash ishlarini umumiy kiymatini 0.5% miqdorida xar bir muddati o'tgan kuni uchun «Buyurtmachi»ga peniya to'laydi, bunda peniyaning umumiy summasi bajarilmagan xizmat bahosining 50% dan oshib ketmaslig kerak.

4.3 Qabul qilingan joriy va mukammal ta'mirlash ishlari uchun shartnomada belgilangan muddat ichida asossiz ravishda to'lov amalga oshirilmagan taqdirda xar bir kechiktirilgan kun uchun qabul qilingan ish(xizmat) miqdori summasidan "Buyurtmachi" tomonidan 0.4 % miqdorida ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50% dan ortiq bo'lmagan miqdorida "Ish bajaruvchi" ga penya to'laydi.

5. <Fors-major>

5.1 Shartnomada ko'rsatilgan shartlar tomonlarga borliq bo'lmagan favqulodda xollarda buzilsa (yahni suv toshqini, enrin, zilzila, boshqa tabiiy ofatlar va xukumatning maxsus qarorlarini bajarish bilan borliq xolatlarda) tomonlar javobgar bo'lmaydi.

6. Shartnoma muddati

6.1. Shartnoma ikkala tomonlar imzolanganidan hamda g'aznachilik bo'limida ro'yhatdan o'tkazilgandan so'ng kuchga kiradi.

6.2 Shartnomaning amal kilish muddati 2022 yil «31» dekabrgacha. Ma'lum sabablarga ko'ra bajarilgan joriy va mukammal ta'mirlash ishlari uchun o'z vaqtida to'lovni amalga oshirish imkoni bo'lmaganda tomonlarni o'zaro kelishuviga asosan to'lov uchun qo'shimcha vaqt belgilanadi.

6.3 Shartnoma quyidagi xollarda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin;

- a) tomonlar o'zaro yozma kelishuviga asosan;
- b) «Ish bajaruvchi» tomonidan bajarilgan joriy va kapital tahmirlash ishlarini sifatsizligi to'rtisida «Buyurtmachi» tomonidan belgilangan tartibda xujjat rasmiylashtirilib tegishli xulosa olinganda;
- v) «Ish bajaruvchi» tomonidan mazkur shartnomaning 3.1va 3.2 bandlari bajarilmaganda;
- g) byudjetdan mablar oluvchini xarajatlar smetasiga yeki loyixa-smeta xujjatlariga belgilangan tartibda o'zgartirish kiritilishi natijasida shartnoma summasi kamaytirilishi lozim bo'lgani xolda «Ish bajaruvchi» ushbuga rozilik bermagan taqdirda;
- d) narxlar o'zgarishi natijasida maxsulotlarning, bajarilgan joriy va kapital tahmirlash ishlarini narxi mahlum sanadan o'zgarishi (kamayishi yeki kupayishi) lozim bo'lgani xolda tomonlar o'zaro kelisha olmagan taqdirda;
- Izox: b,v,g,d punktlari bo'yicha shartnomalar «Buyurtmachi» tomonidan bir tomonlama bekor kilinishi mumkin. SHartnomaning bekor kilingani to'rtisida «Buyurtmachi» «Ish bajaruvchi»ga yozma ravishda, asoslarini keltirgan xolda xat bilan mahlum kiladi.

7. Qo'shimcha shartlar

- 7.1 SHartnoma yuzasidan kelib chikkan nizolar o'zaro xal kilinadi. O'zaro xal kilinmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi konunlariga asosan Iqtisodiy sudlari orkali xal kilinadi.
- 7.2 «Ish bajaruvchi» o'z faoliyatini yurgizish uchun lozim bo'lgan xujjatlardan (litsenziya, guvoxnoma, sertifikat) «Buyurtmachi»ga taqdim etadi.
- 7.3 SHartnomani bajarilishi uchun taahluqli xujjatlarni xaqqoniyligi va to'rtiriligi uchun ushbu xujjatlarni taqdim etaetgan tomonlar mahsul va javobgardirlar.
- 7.4 Ushbu shartnoma tomonlar o'rtasida imzolangandan so'ng belgilangan tartibda va muddatda tegishli raznachilik bo'linmasida ro'yxatdan o'tkazilishi shart. Ro'yxatdan o'tkazilmagan shartnomalar bo'yicha to'lov amalga oshirilmaydi.
- 7.5 SHartnomaga barcha o'zgartirishlar ikkala tomonlama kelishilgan va tomonlarning imzo va muxrlari bilan tasdiqlanib tegishli raznachilik bo'linmasida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng amalga kiritiladi. SHartnoma yuzasidan kelib chikkan nizolar o'zaro xal kilinadi. O'zaro xal kilinmaganda xujalik sudi orkali xal kilinadi.

8. Korruptsiyaga qarshi kelishuv

- 8.1. Taraflar korruptsiyaga qarshi shartlashadi hamda ushbu shartlashuv mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo'lib qoladi.
- 8.2 Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korruptsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarga rioya etilmaganda, ikkinchi taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo'ladi

Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari:

«Ish bajaruvchi»
Vodiy Shams Elektron Montaj MCHJ

Manzil: Farg'ona viloyati
 Oltiariq tumani

Tel./faks 98 571 31 51, 90 535 31 51
 x/v_2020 8000 400497794001
 Bank nomi: ChEKI Xamkorbank Marg'ilon filiali

MFO: _00991_ INN: 303 441 439
 OKED 42210 kod NDS 330120102005



M.Xakimov

«Buyurtmachi»
Obodonlashtirish boshqarmasi
 (byudjetdan mablar oluvchining nomi)

Manzil: Qo'qon shaxar Fazliy ko'chasi
 №1 uy

Tel./faks 543-00-90
 sh/x* 401722860304057065100110019
 Byudjetdan mablar oluvchi STIRi:
 200131694
 OKONX: 97600
 Moliya Vazirligi Faznachiligi yagona xisob
 varogi:
 23402000300100001010

Bankning nomi: Markaziy bank Toshkent
 shaxri
 MFO: 00014
 Moliya vazirligi gaznachiligi
 STIR: 201122919



A.Axmedov

Bosh xisobchi



Z.Xamrokulova

**Korruptsiyaga qarshi qoidalarining
ASOSIY SHARTLARI**

1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora, ya'ni Qo'qon shahar Obodonlashtirish boshqarmasining xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yohud mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olish uchun quyidagi harakatlarni qilmaydi:

- pora berishni taklif qilish yoki va'da berish;
- tovlamachilik qilish;
- pora sifatida pul to'lash;
- bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish.

Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo'yicha bir tomon (davlat organi yoki tashkilotining nomi) xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korruptsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

korruptsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan ishonch telefonii(1007,1253)

Telegram-kanali;

Korruptsiyaga qarshi kurash sohasidagi vakolatli davlat organining rasmiy veb saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

TOMONLAR:


Bajaruvchi: Vodiy Shams Elektron Montaj MChJ



M.Xakimov


**Buyurtmachi: Qo'qon shahar Obodonlashtirish
boshqarmasi raxbari**



A.Axmedov

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi : Shartnoma № 103781-sonli

2. Loyihaning nomi

Byudjetdan mablag' oluvchi muassasalarda joriy va kommunal tamirlash ishlarini bajarish bo'yicha «Vodiy Shams Elektron Montaj» MCHJ bilan tuzilgan 103781-sonli shartnoma.


3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

Qo'qon shahar Obodonlashtirish bo'limi tomonidan 2022 yil 22 iyun kuni tizimga kiritilgan.

4.Loyiha yuzasidan berilgan xuquqiy xulosa

Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunlari hamda «No'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni asosida o'rganildi. Shartnoma loyixasi amaldagi qonun hujjatlari talablariga javob beradi hamda qonunga mos holda tuzilgan. Tomonlarning shartnomada ko'rsatilgan javobgarligi va o'zaro nizolarni hal qilish O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolik kodeksi» hamda «No'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni asosida tuzilganligi haqida xulosa qilaman.

Qo'qon shahar yuridik xizmat ko'rsatish
markazi bosh yuristkonsulti:



U.Xoshimjonov



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Фарғона вилояти

150115 Farg'ona shahri, Al-Farg'oniy 36-uy tel 73)-244-68-81 244-68-82 mail: fergexp@rambler.ru

www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Xagay Aleksandr Andreyevich

Sana: 06-06-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 45666

Obyekt nomi «Farg'ona viloyati, Qo'qon shahar Charxini ko'prigi, Yangi Chorsu MFYlardagi axoli xonadonlarini mavjud gaz quvurlarini rekonstruksiya qilish va qayta gazlashtirish»

Buyurtmachi - Farg'ona viloyati Gazloyiha instituti MCHJ

Bosh loyihachi - "Gazloyiha" MCHJ

Litsenziya 28.06.2020 y/AL-001047-sonli

Moliyalashtirish manbai - Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi va byudjet mablag'lari xisobidan

Bosh pudratchi - Tender savdolari asosida (agar qaror qabul qiluvchi organ tomonidan belgilangan bo'lsa)

Qurilish turi Rekonstruksiya

Murojaat raqami: № 43918

1. Loyihalash uchun asos

- 1.1. Xalq deputatlari Qo'qon shahar Kengashining 13.04.2022 yil kungi VI-46-31-11-166-K/22-sonli Qarori.
- 1.2. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan Loyiha topshirig'i.
- 1.3. Farg'ona viloyati Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 1730-1730405-43337-sonli 28.05.2022 yilda berilgan Arxitektura Rejalashtirish Topshirig'i.
- 1.4. Nuqson dalolatnomasi.
- 1.5. «Xududgaz Fargona» gaz ta'minoti fillialining 18.02.2021 yilda berilgan 141- sonli texnik sharti.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

- 2.1. Loyixa tarkibiga ko'ra elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyixa smeta xujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

- 3.1. Ishchi loyixaga doir ma'lumotlar.

Ushbu loyixada, Qo'qon shahar Charxini ko'prigi, Yangi Chorsu MFYlardagi axoli xonadonlarini mavjud gaz quvurlarini rekonstruksiya qilish va qayta gazlashtirish uchun 1-kitobda ko'rsatilgan, d325x5 mm.li o'rta bosimli gaz quvuridan shaxobcha olib d159x4,5 mm.li gaz quvuri tortildi. O'rta bosimli gaz quvuri yo'lning qatnov qismidan mavjud fermadan olib o'tildi. O'rta bosimli gaz quvuri Charxiyni ko'prigi va Yangi Chorsu MFYlardagi axoli xonadonalriga tarqatildi. Ushbu MFYlardagi axoli xonadonlari 2 bosqichli gaz ta'minotiga

o'tganligi sababli, ushbu xonadonlarning soatlik gaz sarfi axolining umumiy gaz iste'molidan kelib chiqib aniqlandi. Ko'chalar va mexanizmlar o'tish joylari h-5,0 metr balandlikka ko'tarildi . Xisoblangan kerakli po'lat quvur va moslamalar davlat namunasi / GOST/ va turlari ko'rsatilgan xolda buyurtma tasnifida ko'rsatildi. Quvurlarni atmosfera ta'sirida zanglashdan saqlash uchun ikki marta moyli bo'yoq bilan bo'yaladi. Xisoblangan kerakli po'lat quvurlar, moslamalar, gaz bosimini sozlovchi qurilmalar (GRP) Davlat namunasi (GOST) va turlari ko'rsatilgan xolda tasnifida ko'rsatilgan. Kelishularni buyurtmachi o'z zimmasiga oladi.

3.2. Shu jumladan rekonstruksiya ko'zda tutilgan ishlar batafsil albomlarda, loyixa topshirig'ida va tushuntirish yozuvida, ko'rsatib o'tilgan.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. Muxandislik tizimlari texnik shartlarga va loyixa topshirig'iga muvofiq jixozlangan. (Elektron taqdim etilgan tarmoq muxandisligi albomlarda batafsil ko'rsatilgan).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan Loyiha topshirig'i.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxasislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.2. Ishchi loyixa ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining texnologik, ichki muxandislik, energiya tejamlilik va boshqa yechimlari izoxlarsiz taqdim etilgan.

6.3. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izoxlariga muvofiq ishchi loyixasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi. (Biriktirilgan lokal ekspertiza xulosalaridagi faylda batafsil ko'rsatib o'tilgan).

6.4. Obyektning materiallar qiymati Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan narxlar bayonnomasiga asoslangan ko'rib chiqildi. Buyurtmachi jami xarajati, ish xaqqi 12114,89 sum/chelchas (ijtimoyi sug'urta siz) va pudratchining boshqa xarajatlari 19,39% buyurtmachi xatiga asosan qabul qilindi.

Buyurtmachi tomonidan quyidagi obyekt jami bo'lib 808 546,733 ming so'm taqdim etilgan.

Tekshiruv natijasiga ko'ra quyidagi ko'rsatgichlar aniqlandi:

Qurilish qiymati QQS siz	- 599 807,442 ming so'm
QQS 15%	- 89 971,116 ming so'm
Qurilish qiymati QQS bilan	- 689 778,559 ming so'm
Buyurtmachining xarajatlari	- 111 475,281 ming so'm
Jami obyekt qiymati QQS va buyurtmachi xarajatlari bilan	- 801 253,840 ming so'm
Iqtisod qilingan mablag'	- 7 292,893 ming so'm

6.5. Kamayish qurilish mashinalarini va mexanizm va ba'zi materiallar qiymati sozlash xisobiga amalga oshirildi .

6.6. Jixozlar qiymati buyurtmachi kompetensiyasiga kiradi

6.7. Import qilingan uskunalar va materiallarning narxi ekspertiza tomonidan ko'rib chiqilmagan.

6.8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 22 yanvardagi 15-sonli qaroriga muvofiq 4-ilovalar, II bob 8-band va SHNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. Farg'ona viloyati, Qo'qon shahar Charxini ko'prigi, Yangi Chorsu MFYlardagi axoli xonadonlarini mavjud gaz quvurlarini rekonstruksiya qilish va qayta gazlashtirish, ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqib, tasdiqlashga tavsiya etiladi.

7.2. Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va SHNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'yektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

7.3. Ko'rsatilgan narxni tanlov savdolari uchun qabul qilish to'g'risida buyurtmachi qaror qabul qiladi.

7.4. Taqdim etilgan xujjatlar uchun Buyurtmachi javobgardir.

Bosh mutaxassis: TASHEMIROVA SHOXISTA MAXAMATJONOVNA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH
DAVLAT QO'MITASI
FARG'ONA VILOYAT EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH
BOSHQARMASI**

150105, Farg'ona shahar Yu.Sakkokiy 39/41 tel:+998 (73) 244-62-19, faks 244-61-80
Veb-sahifa: <http://www.ecofargona.uz>, <http://eco.gov.uz> elektron pochta: fargona@uznature.uz

**DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZA
XULOSASI**

Ob'ekt: Qo'qon shahar Charxiy ko'prigi, Yangi Chorsu mahalla fuqarolar yig'ini aholisini aholi xonadonlarini mavjud quvurlarini rekonstruksiya qilish va qayta gazlashtirish davrida loyixa oldi bosqichida "Atrof muhitga ta'sir to'g'risida ariza" loyihasi.

Buyurtmachi: "Gazloyixa" insituti MChJ

STIR 200126944

Toifasi: O'z. Res. VM 7.09.2020 y. 541-sonli qaror 1-ilova. 3-toifa.

Loyihachi: "Gazloyixa" insituti MChJ

Ekspert: R. Mamadaliev

tashkilot: "Farg'ona viloyat gazloyixa" insituti MChJ

raxbari: ABDURASHID UMAROV
ABDUXAMIDOVICH

"Atrof muhitga ta'sir to'g'risida ariza" ATTA loyihasini ishlab chiqishdan maqsad, mo'ljallanayotgan faoliyat turini joylashtirishni ekologik nuqtai nazardan asoslash, atrof muhit xolatini tahlil qilish, amalga oshirilishi lozim bo'lgan ekologik talab va tadbirlarni aniqlashdan iborat.

Farg'ona viloyat xokimining 30.03.2022 yil № 136-11-0-Q/22-conli qarori, Qo'qon shahar 28.05.2022 yil № 1730-1730405-43337-sonli Arxitektura – rejalashtirish topshirig'iga asosan: Qo'qon shahar "Charxiy ko'prigi" va "Yangi Chorsu" maxalla fuqarolar yig'inlarini axolisini issiqlik ta'minotini Idta'minlash maqsadida axoliga mavjud gaz quvurlarini rekonstruksiya qilish va qayta gazlashtirish uchun mavjud Du-325mm.li yuqori bosimli gaz quvuridan 159mm.li o'rta bosimli gaz tarmog'iga jami uzunligi 1451metr tortib kelish rejalashtirilgan. "Charxiy ko'prigi" maxalla fuqarolar yig'ini xududida axoli soni 2817 nafar, xonadonlar soni 466 metr, "Yangi Chorsu" maxalla fuqarolar yig'ini axoli soni 2851 nafar, xonadonlar soni 465ta shundan 417tasi yer xovli uylar, 48tasi ko'p qavatli uylardan iborat.

Xududni yer maydoni joylashuviga ko'ra: shimol va sharq, janub va g'arbdan – axoli xonadonlari bilan chegaralangan.

Gaz quvuri tarmog'i tortish jarayonida 5 kishi 80 kun ishlab, surish, kavlash, payvandlash ishlarini olib borishi rejalashtirilgan bo'lib, gaz quvuri tortilishi byudjet mablag'lar evaziga vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari olingandan so'ng amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Metal quvurlarni ulash elektr payvandlash, tarmoq tortish mavjud gaz tarmoqlarini rekonstruksiya jarayonida ishchilarning ish faoliyatidan jami 0,461 tn qattiq-maishiy chiqindilari xududida vaqtincha joylashtirish uchun maxsus chiqindi tashlash sig'imlari o'rnatilishi hamda tarmoq tortish jarayoni tugaganidan so'ng, shahar markazi chiqindixonasiga olib borib joylashtirish ko'zda tutilgan.

Tabiiy gaz tarmog'i tortilishi natijasida atmosfera xavosiga "Samsung" rusumli ekskavatorida surish, kavlash ishlari amalga oshirilishi uchun dizel yoqilg'isidan foydalaniladi. Bundan tashqari metall quvurlarni payvandlash uchun elektrodlardan foydalaniladi. Quvur tortilganidan so'ng metallarni zanglash va erroziyadan saqlash uchun ular bo'yab chiqiladi.

Tarmoq tortish va mavjud gaz tarmoqlarini qayta qurish jarayonida kavlash, surish, qazish ishlarida "Samsung" rusumli ekskavatoridan foydalaniladi. Ushbu jarayonda 5,13 tn dizel yoqilg'isidan foydalanish ko'zda tutilgan bo'lib, yoqilg'i yonishi natijasida atmosfera xavosiga 0,054 tn/y uglerod oksidi, 0,207 tn/y azot oksidi, 0,099 tn/y marganes birikmalari kabi zararli tashlamalar tashlanishi kutiladi. Quvurlarni bo'yash natijasida (1,10 tn/yil emal bo'yog'i) 0,012 tn/yil bo'yoq bug'i, 0,001338 tn/y 0,12 tn/yil kislol kabi zararli moddalar tashlanadi.

Ob'ektda axoliga gaz quvurni qayta qurish, tarmog'i tortishda ishchilarning ichimlik va maishiy ehtiyojlar uchun 10,0 m³ suv ishlatiladi. Ichimlik va maishiy ehtiyojlar uchun suvni ob'ektga yaqin bo'lgan ichimlik suvidan tashib kelib ishlatilishi ko'zda tutilgan. Suvdan foydalanish natijasida hosil bo'lishi kutiladigan 8,0 m³ oqava suvlarni tarmoq o'tadigan xududdagi ko'kalamzor yer maydonlariga sug'orish uchun sepib yuboriladi.

Gaz quvuri tarmog'i tortishda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha quyidagi ekologik chora-tadbirlar bajarilishi talab qilinadi:

Xosil bo'lgan maishiy-xo'jalik oqava suvlarni ochiq suv xavzalari va relefga tashlanishiga yo'l quyilmasin;

Xosil bo'lgan qattiq-maishiy chiqindilarni turlariga ko'ra saralab, ikkilamchi xom-ashyo sifatida foydalaniladigan mahsulotlarni tegishli korxonalariga topshirilsin. Qayta ishlash mumkin bo'lmaganlarini vakolatli korxonalar tomonidan shartnoma asosida shahar markaziy chiqindixonasiga olib borib joylashtirilsin;

Qurilishni amalga oshirish davrida xududdagi flora va faunaga zarar yetkazilmasin, noqonuniy kesilishiga yo'l qo'yilmasin;

Tarmoq tortish jarayonida qazilgan joylardan xosil bo'lgan tuproq yoki shag'al qaytadan joyig'a mustaxkamlanishi shart;

Loyihalash, qurilish-montaj, ishga tushirish-sozlash va rejimli sozlash ishlarini amalga oshirishda hamda tabiiy gaz yetkazib berishda O'zbekiston Respublikasi 2006 yil 28 sentyabr kungi "Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi O'RQ-57-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 yanvardagi 22-sonli qarori va ShNQ 2.04.08-13 va boshqa tegishli me'yoriy hujjatlar talabi asosida bajarilsin.

Buyurtmachiga:

- 1.Tarmoq tortish jarayonida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xududidan tarmoq o'tkazishda ulardan yozma ruxsatnomalar olinishi shart;
- 2.Daraxtlardan gaz quvuriga kamida 1,5 metr uzoqlikda masofa saqlansin;
- 3.Gaz quvurlari liniyasi xo'jalik ichki zovurlari qirg'og'idan uzoqlikda qurilishi lozim;
- 4.Qattiq-maishiy chiqindilarni to'plash uchun maxsus idish tashkil qilinsin. Chiqindilarni yer ustiga to'planishiga yo'l qo'yilmasin, o'z vaqtida to'plangan chiqindilarni shahar chiqindixonasiga olib borib joylashtirish shart;
- 5.Tarmoq tortish jarayonida qirqib olingan (kavlangan) yerlarni tekislab asl xoliga keltirilishi shart;
- 6.Qurilish davrida ob'ekt xududida mavjud bo'lgan manzarali va mevali daraxtlar bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muxofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlangan haqida"gi PF-5863 sonli farmoyishiga asosan daraxtlarni kesish taqiqlanadi;
- 7.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 dekabrdagi 981-sonli qaroriga asosan "O'zbekiston Respublikasi hududidagi suv ob'ektlarining suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqidagi" qarorga asosan qurilishi shart;
- 8.Tarmoq tortish, mavjud gaz tarmoqlarini ta'mirlash jarayonida xududda (er osti va yer usti) mavjud bo'lgan muxandislik inshoot (yo'l, aloqa, suv, gaz, elektr tarmoqlari va boshqa)larni texnik shartlarini olish hamda ularni ximoya xududini saqlash buyurtmachiga yuklatiladi;
- 9."Ekologik ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunining 9-moddasi, 3-bandiga muvofiq ekologik ekspertizasi buyurtmachisi xulosada ko'rsatilgan ekologik talablari bajarishi shart.

Yuqoridagi ekologik talablarni bajarilishi sharti bilan "Farg'ona viloyat davlat ekologik ekspertizasi markazi" DUK Qo'qon shahar Charxiy ko'prigi, Yangi Chorsu mahalla fuqarolar yig'inlari aholisini aholi xonadonlarini mavjud quvurlarini rekonstruksiya qilish va qayta gazlashtirish davrida loyixa oldi bosqichida "Atrof muhitga ta'sir to'g'risida ariza" loyihasini ro'yobga chiqarishga **ijobiy xulosa** beradi.

Ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasidagi ekologik talablarni bajarilishini nazorati Farg'ona viloyat Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi Qo'qon shahar bo'limiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Ekologik ekspertiza to'g'risida" gi qonunning 22-moddasiga binoan ushbu ob'ektning ekologik talablarga muvofiqligi xususida "Farg'ona viloyat Davlat ekologik ekspertizasi markazi" DUK ning bergan xulosasi, berilgan kundan e'tiboran 3 yil mobaynida yuridik kuchga ega. Xulosada ko'rsatilgan shartlar bajarilmagan va yuqorida ko'rsatilgan faoliyatdan tashqari boshqa qo'shimcha qurilish va faoliyat turlari tashkil etilgan taqdirda ushbu ekologik ekspertiza xulosasi o'z kuchini yo'qotadi.

Boshqarma boshlig'i

B. Jumanov

Baj: R. Mamadaliev
tel.73. 244-64-94

Хулоса рақами 623
Хулоса санаси 02.06.2022
Текшириш учун



Хужжат рақами: 24632
Текшириш учун пароль: 20582